

INSON HUQUQ VA ERKINLIGINING NAZARIY – FALSAFIY ASOSLARI

J.Sh.Elmurotov

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, PhD

T.X.Jumayev

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, PhD

ANNOTATSIYA

Maqolada barcha davrlar uchun muammoli masala bo'lgan shaxs erkinligini ta'minlash masalasi va hozirgi globallashuv davrida shaxs erkinligini ta'minlashda milliy va diniy qadriyatlarining o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: demokratiya; tabiiy erkinlik; fuqarolik erkinligi; shaxs erkinligi; axloq erkinligi; diniy erkinlik.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящается историческим вопросам обеспечения свободы личности, подходов к решению данной задачи в период глобализации, также значение национальных и религиозных ценностей в этой сфере.

Ключевые слова: демократия; природная свобода, гражданская свобода, свобода личности, свобода нравственности религиозная свобода.

ABSTRACT

This article is dedicated to the historical issues of protection of freedom approaches to solution of this task in the period of globalization the significance of national and religious values in this field.

Key words: democracy, natural freedom, civil freedom, freedom of human, moral freedom, religious freedom.

*"Demokratik islohotlarimiz yangi O'zbekistonni bunyod etishga qaratilgan bo'lib, bu o'zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi."*¹

Sh.M.Mirziyoyev

KIRISH

Mamlakatimiz XXI asrning dastlabki yillarida o'z rivojlanishining aniq yo'nalishlarini belgilab oldi. Islom Karimov bu yo'nalishlarning mazmun va ma'nosiga to'xtalib, "...bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida

¹ https://yuz.uz/uz/news/prezident-shavkat-mirziyoevning-bmt-inson-huquqlari-boyicha-kengashining-46-sessiyasidagi-nutqi?utm_source=chatgpt.com

o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi” lozimligini ta’kidlab o‘tgan.² Jamiyat hayotini demokratlashtirish va unda shaxs erkinligini ta’minlash taraqqiyotning muhim omili, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o‘zgarishlarning asosiy bo‘g‘ini ekanligi bilan ifodalanadi. Mustaqillik yillarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, ijtimoiy va axloqiy me’yorlarga asoslangan holda shaxs erkinligini ta’minlash fuqarolik jamiyati qurish strategiyasining dastlabki bosqichi sifatida baholanmoqda. Ayni chog‘da, “shaxs erkinligi” tushunchasi mohiyatiga ko‘ra demokratiya va demokratlashtirish mezonlariga ehtiyoj sezadi. Sababi, ular inson ongining butun tarixiy evrilishlar mobaynida bir-birini istisno qilmay o‘zaro hamkorlikda shakllangan mahsulidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jamiyatni demokratlashtirish amaliyotida erkinlik muammosi turlicha talqin etilgan. Deylik “tabiiy erkinlik”, “fuqarolar erkinligi”, “shaxs erkinligi”, “erkin fikrlilik”, “siyosiy erkinlik”, “axloq erkinligi”, “diniy erkinlik” yoki “e’tiqod erkinligi” kabi maxsus atamalar ishlatiladi. Erkinlik tushunchasi aksariyat hollarda tenglik atamasi bilan hamohang mazmunda qo‘llaniladi. S.L.Frank shunday yozadi: “Erkinlikni rad etishning har qanday ko‘rinishi ma’nan o‘zini-o‘zi o‘ldirishdir, boshqaning erkinligiga tajovuz qilish esa insonni o‘ldirishga qasd qilish ifodasidir”.³ Shuning uchun insoniyat nafaqat erkinlikni ta’minlash uchun kurashgan, balki uni turli qarashlar vositasida rivojlantirgan. Insonlar maqsad-manfaatlarining turli-tumanligi “shaxs erkinligi” va “erkinlik” tushunchalariga nisbatan dunyoviy va diniy qarashlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Ayrim qarashlarda erkinlikka insonlar uchun anglab olingan zaruriyat deb yondashilsa, boshqalarida esa, yuksak ahloqli barkamol insonlarning sharoit va voqelikka asoslangan oliyjanob munosabatlari, deb qaraladi. Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayon bo‘ladiki, insonning erkinligi uning aqliy erkinligi bilan bog‘liq hodisadir. Chunki, tafakkur erkin bo‘lmasdan ruh va u bilan bog‘liq ma’naviyat o‘z zaruriyatini anglab ololmaydi. Bunday har xillikning asosiy sababi, erkinlikning inson tabiati bilan bog‘liq hodisa ekanligidir. Shuning uchun ham erkinlikning qoidalari va foydalanish usullari o‘ziga xos o‘zgaruvchan xususiyatga ega.

Mazkur o‘ziga xos o‘zgaruvchanlik erkinlikning kishilik jamiyatida ba’zan oshkora, ba’zan yashirin, ayni ma’noda tartibsizliklarni vujudga keltiruvchi holatlar bilan ham belgilanadi. Erkinlik muayyan ma’noda sharoit va voqeliklar chegarasidan chiqmagan holda tartibga solinishi kerak. Zero, erkinlik falsafiy yondashuvlarda butun ijtimoiy tarix davomida insoniyat hayotining o‘tkir muammolaridan biri bo‘lib keldi. Chunki, erkinlik ijodiy yaratuvchi, faol, o‘z

² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. -Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. 16-bet.

³ Frank S.L. Duxovnie osnovi obshestva: vvedeniye v sotsialnuyu filosofiyu. - M.: 1993. –S. 240.

oldiga qo‘ygan maqsadi sari harakat qiluvchi insonning ehtiyoji bo‘lib, uning tabiati bilan bog‘liqdir. “... Tarix saboqlari shundan dalolat beradiki, o‘zining erkin fikrini ifoda etadigan shaxs, guruh yoki ijtimoiy qatlam, avvalo, o‘zining aniq-ravshan, asosli qarashlariga ega bo‘lishi, o‘z nuqtayi nazarining oqibati uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi, bahs munozara madaniyati talablariga amal qilishi lozim. Ya’ni, fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligi muayyan jamiyatning milliy manfaatlariga, umumbashariy qadriyatlarga, qonun normalariga, axloqiy mezonlarga zid bo‘lmasligi zarur”.⁴ Milliy istiqlol g‘oyasining fikrlar, g‘oyalar xilma-xilligiga erishish tamoyiliga amal qilishi mamlakat ma’naviy hayotini, davlat va jamiyat qurilishida aholining keng ommasini yuksak erkin fikrlilik darajasi bilan ishtirok etishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, hech shubhasiz, shaxs erkinligiga nisbatan jamiyatni demokratlashtirishning boshlang‘ich va eng muhim omili sifatida qarash mumkin. Fikrni erkin aytish va ayta olishga jur’atli bo‘lish ozod shaxsga xos xususiyatdir. Ozod shaxs va fuqaro tushunchalari ularning jamiyatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotiga daxldor bo‘lgan muammolarga o‘z munosabatini erkin bildirishi bilan ham bog‘liq.⁵ Ayni damda, bugun jamiyatda demokratlashtirish islohotlarini tadrijiy yo‘l bilan olib borish jarayonlarida shaxsning erkinlikka egalik sharoitini kafolatlashning o‘zi hali uning amalda erkinlikka ega ekanligini to‘la anglab yetganligini bildirmaydi. Uning munosib tarzda amalga oshishi quyidagi omillar bilan bog‘liq: **birinchidan**, shaxs o‘z erkinligini butun qalbi va e’tiqodi bilan ongli tarzda anglab yetishi; **ikkinchidan**, shaxsning ma’naviy va ichki dunyoqarashi keng darajada bo‘lishi; **uchinchidan**, shaxs o‘z haq-huquqlarini zaruriyat darajasida bilib, chuqur anglab yetishi; **to‘rtinchidan**, shaxsning o‘z kuchi va imkoniyatiga tayanishi, o‘ziga ishonchi; **beshinchidan**, jamiyatda yuz beradigan voqelik va hodisalarga nisbatan munosabatda o‘zining erkin fikr va qarashiga egaligi, mustaqil yondashishi; **oltinchidan**, o‘z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘rishidir. Shunda Islom Karimovning: mustaqil bo‘lsang, mustaqil bo‘l, erkin bo‘lsang, erkin bo‘l, ozod bo‘lsang, ozod bo‘l, degan so‘zlarining, amalda uni to‘la anglab yetib, unga erishish to‘g‘risida borayotganligini yurakdan his etish mumkin.

Erkinlik va shaxs erkinligi o‘ziga xos bo‘lgan milliy va dunyoviy qadriyatlar hamda axloqiy me’yorlar negizida, bir-biri bilan uyg‘un holda shakllanadi. Shaxs erkinligi bugun butun insoniyat hayoti va faoliyatining bosh mezoniga aylanmoqda. Bu XXI asrda mamlakatimizda belgilangan jamiyat hayoti sohalarini demokratlashtirish, komil insonlarni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

⁴ Karimov I.A. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2000. 20-bet.

⁵ Qarang: Jamiyatni erkinlashtirish va ma’naviyat. -Toshkent: “Akademiya”, 2002. -14-bet.

Ta'kidlash lozimki, erkinlikka intiluvchi, unga nisbatan ehtiyoj sezuvchi, erkin fikrlovchi, ozod va erkin shaxslar faoliyati orqali jamiyat hayotini yanada demokratlashtirishga erishiladi.

Ko'rinib turibdiki, erkinlikni tushunish yoki tushuntirish zamon ruhiga mos ravishda o'zgarib takomillashib boradi. Jamiyatni demokratlashtirish masalalari shaxs erkinligini, uning haq-huquqlarini ta'minlash bilan o'zviy bog'liq. Islom Karimov ta'kidlaganidek, ...bugungi inson huquqlari va manfaatlari, ularni har tomonlama himoyalash va ta'minlash, jamiyatni demokratlashtirish va erkinlashtirish yo'llari haqida gapirar ekanmiz, bu mavzu dunyoda har doim, ayniqsa, so'ngi paytlarda eng o'tkir va dolzarb masalaga aylanib boryotganini yaqqol kuzatish mumkin va buni tabiiy hol, deb qabul qilishimiz kerak.⁶ Zero, insonning shaxs sifatida shakllanishi jamiyatga bog'liq bo'lganidek, jamiyatning demokratik taraqqiyoti ham unda yashaydigan erkin shaxslarning amaliy faoliyatiga bog'liqdir. Ulug' alloma Forobiy jamiyatning o'zgarishi jamiyat a'zolari bo'lgan erkin insonlarga bog'liq ekanini alohida ta'kidlagan edi. Binobarin, har bir davrda shaxs va jamiyat uyg'unligi, bu uyg'unlikni ta'minlaydigan dunyoviy va diniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, ma'naviy mezonlar alohida ahamiyat kasb etgan.

Jamiyatni demokratlashtirish mezoni tarixiy taraqqiyot davomida shaklan va mazmunan boyib borgan. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Zero, jamiyat hayotini demokratlashtirish eng rivojlangan davlatlarda ham yuqori takomil nuqtasiga, ideal darajasiga erishgani yo'q. Har bir millat va jamiyat, har bir davr demokratiyani tushunish, talqin etish va amaliyotda qo'llashda o'ziga xoslikka ega bo'ladi. Bu o'ziga xoslik xalqning bosib o'tgan tarixiy yo'li, milliy mentaliteti, an'analari, amaldagi ijtimoiy munosabatlarning xarakteri kabi bir qator omillar bilan belgilanadi. Shuningdek jamiyat hayotini demokratlashtirish xarakterini belgilovchi umumiy mezonlar ham bor. Bu demokratiyaning umumiy tamoyillariga rioya qilinishi, demokratik institutlarning mavjudligi va ularning faoliyati bilan bog'liqdir. Jamiyatni demokratlashtirish mohiyatan insonning har tomonlama kamol topishi uchun yaratilgan sharoit, shaxs bilan jamiyat manfaatlaridagi uyg'unlikni ta'minlovchi omildir.

“Hozirgi vaqtda turli niqoblar ostida mamlakatimizni “demokratlashtirish” maqsadida har xil nodavlat tashkilotlarni ko'paytirish va rivojlantirish uchun beg'araz yordam beramiz, deb jar solayotganlar soni ko'payib bormoqda.”⁷ Ayni paytda, jamiyat hayotini demokratlashtirish to'g'risida qabul qilingan qonunlar, amaldagi

⁶ Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari — eng oliy qadriyat. 14-jild. -Toshkent: “O'zbekiston”, 2006. -118-bet.

⁷ Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari — eng oliy qadriyat. 14-jild. -Toshkent: “O'zbekiston”, 2006. -144-bet.

tartib-qoidalar yordamida shaxs hayoti va faoliyatini tartibga soluvchi mexanizmi yaratilgan. Bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda jamiyat hayotini demokratlashtirish, uni takomillashtirish jamiyatning yashash tarziga aylanib qoldi.

XULOSA

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, jamiyatni demokratlashtirish jaryonlarida shaxs erkinligini ta’minlash masalasida G‘arb demokratiyasi rasmiy qonunlarga suvangan holda ish ko‘radi. Ya’ni individual shaxs va jamiyat erkinligi masalasi qonunga muvofiq tartibga solinadi. Biroq, ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan barcha muammolarga, voqeliklarga va holatlarga huquqiy me’yorlardan to‘la javob topib bo‘lmaydi. Bunday hollarda sharqda asrlar mobaynida shakllanib, sinovdan o‘tgan dunyoviy va diniy, ahloqiy va ma’naviy qadriyatlar qo‘l keladi. Sharqda ham shaxs erkinligi va uning huquqiy manfaatlari mukammal darajada hisobga olinadi. Biroq bunda, avvalo, sharqona demokratiya prinsipi ustuvor turadi. Lekin shaxs xatti-harakati, xulq-atvori, jamiyatdagi o‘rni, mas’uliyatini idrok etish holatlariga baho berilganda muayyan guruh, etnos, xalq, millat, jamiyatning manfaatlari, huquqlariga alohida qadriyatlar, an’analaridan kelib chiqqan holda yondoshiladi. Ayni ma’noda, jamiyatni demokratlashtirish jarayoni bu har ikki omildan uyg‘un holda foydalanish erkinlikni va o‘z qadr-qimmatini, insoniy g‘ururini barcha narsadan ustun qo‘yadigan kurashchan avlod dunyoga kelishining kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. 16-bet.
2. Франк С.Л. Дуксовны́е основы общества: введение в социальную философию. - М.: 1993. –С. 240.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2000. 20-bet.
4. Qarang: Jamiyatni erkinlashtirish va ma’naviyat. -Toshkent: “Akademiya”, 2002. -14-bet.
5. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari — eng oliy qadriyat. 14-jild. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2006. -118-bet.
6. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari — eng oliy qadriyat. 14-jild. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2006. -144-bet.